



EDUCATION OF STUDENTS BASED ON NATIONAL VALUES IS AN URGENT ISSUE TODAY

Sayyora V. Jorayeva

Master's student

Namangan University of Business and Sciences

Namangan, Uzbekistan

ABOUT ARTICLE

Key words: national values, education, spirituality, enlightenment, culture.

Received: 23.12.23

Accepted: 25.12.23

Published: 27.12.23

Abstract: The fact that serious measures are being taken to restore national values in our country is very important for the restoration of our spirituality. Today, the world recognizes the restoration of our national values. A clear example of this is the participation of representatives from more than 50 countries of the world in events and symposia dedicated to the anniversaries of Bukhara, Khiva, and Samarkand cities, as well as events and symposia dedicated to great figures such as Sahibgiron Amir Temur, Mirzo Ulug‘bek, Bahauddin Naqshband. It is known that traditions are created in the process of the historical formation and development of the nation and are a priceless spiritual wealth that is passed from ancestors to generations as a sacred heritage. It is the sacred duty of every young generation and every student to preserve and perfect the customs that have become one of the main symbols of the nation. In order for traditions to survive, first of all, it should be occupied by young people, the creators of our future.

O'QUVCHILARNI MILLIY QADRIYATLAR ASOSIDA TARBIYALASH BUGUNGI KUNDAGI DOLZARB MASALA

Sayyora V. Jo‘rayeva

Magistratura talabasi

Namangan biznes va fanlar universiteti

Namangan, O‘zbekiston

MAQOLA HAQIDA

Kalit so‘zlar: milliy qadriyatlar, tarbiya, ma’naviyat, ma’rifat, madaniyat.

Annotatsiya: Mamlakatimizda milliy qadriyatlarni tiklash bo‘yicha jiddiy tadbirlarning

amalga oshirilayotganligi ma'naviyatimizning tiklanishida juda muhim ahamiyat kasb etmoqda. Milliy qadriyatlarimizning tiklanayotganligini bugungi kunda jahon tan olmoqda. Ayniqsa, Sohibqiron Amir Temur, Mirzo Ulug'bek, Bahouddin Naqshband kabi ulug' siymolar hamda Buxoro, Xiva, Samarqand shaharlari yubileylariga bag'ishlangan tadbirlar, simpoziumlarda dunyoning 50 dan ortiq davlatlaridan vakillarning qatnashganligi buning yorqin namunasidir. Ma'lumki, an'analar xalqning tarixiy shakllanishi va rivojlanishi jarayonida yaratilgan va ajdoddlardan avlodlarga muqaddas meros sifatida o'tib kelayotgan bebafo ma'naviy boylik hisoblanadi. Millatning asosiy belgilaridan biriga aylangan odatlarni asrash va kamol toptirish har bir yosh avlodning, har bir o'quvchining muqaddas burchi hisoblanadi. An'analar barhayot bo'lishi uchun, eng avvalo, uni kelajagimiz bunyodkorlari yoshlar egallashi lozim.

ВОСПИТАНИЕ СТУДЕНТОВ НА ОСНОВЕ НАЦИОНАЛЬНЫХ ЦЕННОСТЕЙ – АКТУАЛЬНЫЙ ВОПРОС СЕГОДНЯ

Саёра В. Жураева

студент магистратуры

Наманганский университет бизнеса и наук

Наманган, Узбекистан

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: национальные ценности, образование, духовность, просвещение, культура.

Аннотация: Тот факт, что в нашей стране принимаются серьезные меры по восстановлению национальных ценностей, очень важен для восстановления нашей духовности. Сегодня мир признает восстановление наших национальных ценностей. Ярким примером этого является участие представителей более 50 стран мира в мероприятиях и симпозиумах, посвященных юбилеям городов Бухары, Хивы и Самарканда, а также мероприятиях и симпозиумах, посвященных таким великим деятелям, как Сахибгирон Амир Темур, , Мирзо Улугбек, Бахауддин Накшбанд. Известно, что традиции создаются в процессе исторического становления и развития нации и представляют собой бесценное духовное богатство, передающееся от предков к поколениям как священное наследие. Священный долг каждого молодого поколения и каждого студента — сохранять и

совершенствовать обычай, ставшие одним из главных символов нации. Чтобы традиции сохранились, прежде всего, их должна занять молодежь – творцы нашего будущего.

KIRISH

Tarbiya bu uzluksiz va tizimli jarayon bo‘lib, inson tug‘ilganidan to keksalikka qadar davom etadi. Shu boisdan O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Ma’naviy-ma’rifiy ishlar samaradorligini oshirish bo‘yicha qo‘srimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” 2019-yil 3-maydagi PQ-4307-son qarori ijrosini ta’minalash, shuningdek, yoshlarni mustaqil hayotga dunyoqarashi keng, faol fuqarolar etib tarbiyalash maqsadida “Uzluksiz ma’naviy tarbiya konsepsiyasini tasdiqlash va uni amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 31.12.2019-yildagi 1059-son qarorini aynan tarbiya sohasida amal qilinishi kerak bo‘lgan ustuvor jihatlar bor. Qarorda “...yoshlarda Vatanga sadoqat, tadbirkorlik, irodalilik, mafkuraviy immunitet, mehr-oqibatlilik, mas’uliyatlilik, bag‘rikenglik, huquqiy madaniyat, innovatsion fikrlash, mehnatsevarlik kabi muhim fazilatlarni bolalikdan boshlab bosqichma-bosqich shakllantirish; ...” kerakligi belgilangan.

ASOSIY QISM

Ana’anaviy xalq bayramlarining tiklanishi o‘zbek madaniyati tarixida muhim voqeа bo‘lib qolmoqda. Chunki bayramlar hayotning eng yaxshi tomonlarini o‘zida mujassamlashtirgan madaniyatning yirik va muhim shakli hisoblanadi. Shu yo‘l bilan azaliy bayramlarning tiklanishi bilan xalq madaniyatining eng qimmatli tomonlarini jonlantirishga zamin yaratildi. Xalq an’alarining tiklanishi borasida so‘z borganda, yoshlar kamolotida muhim o‘rin tutadigan xalq o‘yinlariga alohida to‘xtalish lozim. Ajodolarimizning eng qadimiy an’anaviy, ko‘pgina madaniyat shakllari raqs, teatr va sportga xos marosimlar shu o‘yinlar zaminidan kelib chiqqan va tarixiy jarayonda avlod ajodolarimizning sog‘lomlashiruvchi vositasi bo‘lib kelgan. Ravshanki, ko‘ngilda vatanga muhabbat jo‘sh urib turmasa, unga oshuftalik qalbni qaynatmasa, vujudingda Vatanga farzandlik burchi mas’ullik torlarini harakatga keltirmasa, harchand “Vatanim sajdaghohim, iqbol maskanim” deyilgani bilan bizdagi mehr-u sadoqat qandaydir mavhumiylikka moyil xisga o‘xshab qolaveradi.

Bugungi kunda bizning qilayotgan barcha ishlarimiz yosħlarimizning baxtu-saodati ularning yorug‘ kelajagi uchun amalga oshirilmoxda. Odobli, bilimdon va aqli, mehnatsevar, iyomon-e’tiqodli farzand nafaqat ota-onaning, balki butun jamiyatning eng katta boyligidir. Barkamol shaxsni tarbiyalashda milliy qadriyatlar va urf-odatlardan foydalanish bugungi kunda ta’lim-tarbiya jarayoni oldida turgan eng dolzarb vazifalaridan biri hisoblanadi. Shu boisdan ham mamlakatimizda yaratilgan bu betakror an’ana va marosimlar, milliy qadriyatlar va urf-odatlarni o‘rganish hamma davrlarda ham olimlar oldiga bir qator muhim vazifalarni bajarish zaruratini qo‘yan. Bu borada J.Hasanboyev,

M.Turopova, O.Hasanboyeva, A.Mavrunov, U.Qoraboyev va boshqalarning ilmiy ishlari va maqolalarini eslatib o'tish maqsadga muvofiqdir. Shuningdek, xalq pedagogikasining ta'lim oluvchi shaxsiga tarbiyaviy ta'sir ko'rsatish muammosini o'rganish bo'yicha M.Ochilov, A.K.Munavvarov, S.Axmedov, S.Ochilov, O.Musurmonova, M.Inomova, S.Nishonova va boshqalar tomonidan doktorlik ishlari bajarilganligini alohida qayd etish lozim.

Shu jarayonda har bir shaxsda milliy ma'naviyatni, milliy ong, milliy shuur, milliy tuyg'uni, vatanparvarlikni barkamollikka ko'tarish omillari faollik jarayoniga ko'chadi. Bu ulug'vor maqsadlarni amalga oshirish uchun jamiyatimiz o'zining real imkoniyatlariga ega. Avvalo, ozod va mustaqil Vatanda xalqni farovonlikka yetaklovchi va ma'lum ma'noda munosib turmushni kafolatlovchi shart-sharoitlar yaratildi. Davlatimizda fidoyi, ishchan, tashkilotchilik salohiyati baland malakali kuchlar ulg'aydi. Ular siyoshi, faoliyatida milliy ma'naviyatning barqaror mag'zi, yaratuvchan kuchi mavjud. Milliy ma'naviyati barqaror shakllangan bunday kishilar o'z xalqi, millati, vatani manfaatini har qanday sharoitda himoya qiladi, o'z faoliyatida xalqimizning milliy ma'naviyatini namoyish eta oladigan, millatning salohiyatini, Vatan qadri, sha'ni, shuhratini ellararo, davlatlararo ko'rsata biladigan insonlardir.

Yoshlarga milliy qadriyatlarni ta'limdan tashqari ishlar orqali singdirishning asosiy vazifalari sifatida quyidagilarga e'tibor qaratilishi lozim:

Birinchidan, yoshlarni erkin fikrlashga o'rgatish, hayot mazmunini tushunib olishiga ko'maklashish, o'z-o'zini idora va nazorat qila bilishini, shakllantirish, o'z shaxsiy turmushiga maqsadli yondashuv, reja va amal birligi hissini uyg'otish;

Ikkinchidan, o'quvchi-yoshlarni milliy, umuminsoniy qadriyatlар, Vatanimiz-ning boy ma'naviy merosi bilan tanishtirish, madaniy hamda dunyoviy bilimlarni egallahsga bo'lgan talablarini shakllantirish, malaka hosil qildirish, o'stirib-boyitib borish va estetik tushunchalarini shakllantirish;

Uchinchidan, har bir o'quvchi-yoshlarni bilimdonligini va ijodiy imkoniyat-larini aniqlab, ularni rivojlantirish, inson faoliyatini turli sohalarda joriy qilish. Yoshlar ijodkorligi, iqtidorini yuzaga chiqarish va yanada qo'llab-quvvatlash uchun shartsharoit hozirlash;

To'rtinchidan, insonparvarlik odobi me'yorlarini shakllantirish (bir-birini tushunish, mehribonlik, shafqatlilik, irqiy va milliy kamsitishlarga qarshi kurasha olish), muomala odobi kabi tarbiya vositalarini keng qo'llash;

Beshinchidan, yoshlarimizni erkin va mustaqil fikrlashga o'rgatish.

Oltinchidan, o'quvchi-yoshlarni milliy san'at turlari, adabiyoti kabi madaniy meroslarimizni o'rgatib borish kabi ishlarni amalga oshirish.

Ta'limdan tashqari tarbiyaviy ishlar o'quvchi-yoshlarning qiziqlishi, istaklari, xohish va ehtiyojlariga suyangan holda, ularning darsdan bo'sh vaqtlarida o'quv-tarbiya jarayonini to'ldiradi.

Bu jarayonlarni tashkil etish yoshlarning ijodiy qobiliyatlarini, tashabbuskorligini oshirishga imkoniyat yaratadi. Bugungi kun yoshlarining bir kunlik vaqt rejasidan o‘quv va darsdan (uyushmagan yoshlar uchun uy ishlaridan tashqari) tashqari vaqt sotsiologiyasini aniqlash va shu asosda ta’limdan tashqari ishlarni samarali tashkil etish chora-tadbirlarini ishlab chiqish va amalga oshirish zarur. Darsdan tashqari ma’naviy-ma’rifiy ishlarni tashkil etishda: tanlovlар, klublar, badiiy havaskorlik, uchrashuvlar, bahslar, sport musobaqalari, davra suhbatlari, treninglar va boshqa tadbirlar, usullari: ishontirish, namuna ko‘rsatish, o‘rganish, mashq qildirish, rag‘batlantirish, illatlarga salbiy munosabat bildirish, munozaralar, kuzatish, trening, jamoaviy ijodiy faoliyat, “mafkuraviy vaziyat”, harakatli, taqlidli, rolli o‘yinlar va boshqa shu turdagи usullardan samarali foydalanish lozim. O‘zbek oilalaridagi kitobga muhabbat, kitobni asrab-avaylab saqlash va kitobxonlik xalqimiz ma’naviy kamolotida muhim ahamiyat kasb etgan fazilatga aylangan. Chunki kishining o‘zini-o‘zi tarbiyalashida kitob ham bilim manbai, ham o‘zingizni ko‘rish, taqqoslash, taqlid qilish, munozara yuritish, bahslashishda ma’lum darajada ko‘zgu vazifasini o‘taydi. Kitobxonlik mushohada va mulohaza yuritish iqtidorini shakllantiradi, fikrni charxlaydi, teranlashtiradi.

Tarixiy joylar, osori atiqalar, yodgorliklar, ziyoratgohlar bilan tanishib, ularni o‘rganishga talaba-yoshlarni jalg etish zarur. Bugungi kun talabalaridan kelib chiqib, muzeylar faoliyatini yanada takomillashtirish ishlari amalga oshirilmoqda.

Muzeylarga o‘quvchi-yoshlarning tashrifini uyuştirib borish an'anaga aylanishi kerak. “Mening davlatim”, “Mening xalqim”, “Mening Vatanim”, “Biz hech kimdan kam bo‘lmaganmiz, kam bo‘lmaymiz ham” va shu kabi turli ma’rifiy tadbirlar tashkil etib, ularda talabalarni va uyushmagan yoshlarni faol ishtirokini ta’minlash lozim¹. Yoshlarning to‘y-ma’rakalarda, ommaviy sayillar, bayramlarda ishtiroki asosida mahallada o‘zini tutishni, kattaga hurmat, kichikka izzatni, yaxshi-yomon kunlarda yelkadoshlikni his qilishni o‘rgatish orqali milliy istiqlol g‘oyasining asosiy tamoyillaridan bo‘lgan milliy va umuminsoniy qadriyatlarga munosabatni shakllantirishga e’tibor qaratish lozim. O‘zbek xalqining hozirgi milliy ma’naviyati va qadriyatlari o‘tmish milliy ma’naviyatining davomi bo‘lib, ularga do‘slik, mehmondo‘slik, insonparvarlik, axloqiy poklik, saxiylik, xushmuomalalik, hayolilik, sizlab muomala qilish, ozodalik, xushchaqchaqlik, xushfe’lllik, mardlik, samimiylilik, lutfi karamlik, ro‘zg‘orparvarlik, ona yurt va xalqiga muhabbatlilik, insoflilik, diyonatlilik, rostgo‘ylik, halollik, or-nomuslilik, to‘g‘rilik, sabr, andishalik, vazminlik, hojatbarorlik,

¹Karimova V.M. O‘zbek yoshlarida oila to‘g‘risidagi ijtimoiy tasavvurlarning shakllanishi: Psixologiya fanlari doktori ilmiy darajasini yozish uchun yozilgan dissertatsiya.-T.:1994.-312b

ota-on va kattalarni hurmat qilish, mehnatsevarlik, o'tmishga hurmat, insoflilik, iymonlilik, milliy g'urur, vatanparvarlik, millatparvarlik kabilar kiradi.

Bugungi kunda bularni yoshlar onggiga singdirish har bir ota-on va tarbiyachi, murabbiylar hamda ustoz muallimlarning asosiy vazifalaridir. Xalqimiz urf-odatlari, an'analarini va marosimlari katta tarbiyaviy ahamiyatga egadir. Odamlarning bir-biriga mehr oqibati, oqilona munosabati, to'g'ri muloqoti, iltifoti, extiromi xalqimizning ichki go'zalligini, boy ma'naviy va ruhiy qiyofasini ifodalaydi. Eng muhimmi, xalqimizdagi mehr-muruvatlilik, saxiylik, mehmondo'stlik, xushmuomalalik, mehr-oqibatlilik, andishalilik, samimiylilik, to'g'rilik, intizomlilik, mehnatsevarlik, o'zini tuta bilishlik, tejamkorlik, sabr qanoatlilik kabi histuyg'ular va hislatlar bugungi kunda barkamol avlod tarbiyasida ibrat-namuna vazifasini bajaradi.

Bugungi kunda jamiyatda milliy ma'naviy qadriyatlarni tiklash, axloqiy ideallarni shakllantirish va millatning, ayniqsa, yoshlarning intellektual salohiyatini yuksaltirish ustuvor vazifadir. Yosh avlodni zamonaviy bilim va tajribalar, milliy va umuminsoniy qadriyatlarni asosida mustaqil va mantiqiy fikrlaydigan, ezgu fazilatlar egasi bo'lgan jismonan, ruhan, estetik va ma'nan sog'lom, vatanparvar insonlar etib voyaga yetkazish uchun barcha kuch va imkoniyatlarni safarbar etish talab etiladi. Negaki, ma'naviy-axloqiy rivojlanish mamlakatni modernizatsiya qilishning asosiy omillaridan biri hisoblanadi.

Ma'naviyat – inson ichki dunyosining bamisol bir ko'zgusi, u insonning ruhiy va aqliy olami ifodasi. Ma'naviyatga tamal toshi, avvalo, oilada qo'yiladi, so'ng hayotda umr davomida, insonni o'rab turgan muhit, yaqinlari ta'sirida, keyinchalik jamoada dunyoni o'rganish, oq-qorani ajratish, yaxshi-yomonning farqiga borish, ta'lim va tarbiya jarayonida, ideallarga intilish va ularga taqlid qilish, dunyoqarashni kengaytirish va hayotiy andazalarga moslashish ta'sirida bosqichma-bosqich shakllanib boradi. U kishilarning falsafiy, huquqiy, ilmiy, badiiy, axloqiy, diniy va boshqa sohalardagi hayotiy tasavvurlari, barcha sohalarda orttirgan bilimlari hamda hayotiy tajribasini o'z ichiga oladi va insonga butun umri davomida yo'lchi mayoqdek yo'l ko'rsatib boradi.

Inson milly ma'naviyatini shakllantirishda kitob mutolaasining o'rni beqiyos ekanligi azaldan ma'lum. Yoshlarning kitob mutolaasiga munosabati mavzusida o'rganish natijalariga ko'ra, kitob mutolaasida Internetning roliga nisbatan umuman olganda ziddiyatli baho berilayotganligi aniqlandi: so'rvnama ishtirokchilarining qariyb yarmi (48,1%) internetdan kitoblarni qidirish va yuklab olish uchun manba sifatida foydalanadi. 56,5% so'rvnama natijasi, yoshlarning ijtimoiy tarmoqlarga mukkasidan berilganligi ular tomonidan kam kitob o'qilayotganligining yoki umuman o'qilmayotganligining asosiy sababi deb hisoblaydilar. Bundan tashqari, kitob o'qishga qiziqadigan yoshlar sonining birmuncha kamayishi so'rvnama ishtirokchilari tomonidan yoshlarning pul topishga berilganligi, ota-onalar farzandlarida kitob o'qishga qiziqish uyg'otish bilan

shug‘ullanmayotganligi, yoshlар tomonidan kitob o‘qish zerikarli va qiziqarsiz mashg‘ulot sifatida idrok etilayotganligi bilan izohlanadi.

O‘rganish natijalarining ko‘rsatishicha, o‘quvchi-yoshlар uchun kitob mutolaasi o‘quvchi-yoshlарining qariyb uchdan biriga ma’naviy ozuqa manbasi, chorak qismiga milliy tarbiya, umumiylар dunyoqarash va savodxonlikni rivojlantirish usuli bo‘lib xizmat qiladi, har besh nafar respondentdan biri mutolaadan rohatlansa, har oltinchi ishtirokchiga mutolaa o‘qishda qo‘srimcha bilimlar olishga yordam beradi.

Hozirda yoshlarning yarmi kitob o‘qib turadi, ammo u yoki bu sababli, asosan vaqt yetishmasligiga ko‘ra yoshlар tomonidan kitob mutolaa qilinmayotganligi kabi tashvishli tendensiya ham ko‘zga tashlanmoqda.

Mamlakat zamонави yoshlарining ijobiy kayfiyati va sobitqadamligini, qadriyatlar tizimiga ularning alohida e’tiborini hamda intellektual va kasbiy o’sishga intilishini ta’kidlaydi. O‘quvchi-yoshlarning davlat va jamiyat hayoti bilan hamnafasligi hamda davlat tomonidan yoshlар muammolariga alohida e’tibor, shuningdek, har tomonlama qo‘llab-quvvatlash istiqbolda mamlakat, jamiyat va umuman millatning samarali va barqaror holatiga bo‘lgan ishonchni ta’minlaydi. Yoshlarni ma’naviyatga oshno qilish yosh avlodda milliy va umuminsoniy qadriyatlarini tarbiyalash ishiga xizmat qiladi. Millatning zakovati va ma’naviyatini rivojlantirish esa davlat ahamiyatiga molik vazifadir.

Jahonda yuzaga kelayotgan o‘zgarishlar zamirida rivojlanayotgan jamiyat o‘z ta’siri doirasida insonlarning qadriyatlariga ham sezilarli darajada o‘z ta’sirini ko‘rsatmoqda. O‘z navbatida mazkur omillar sabab insonlarning dunyoqarashi va xulq-atvori ham o‘zgarib bormoqda. Olimlar esa mazkur o‘zgarishlarning turli jihatlari borligini alohida ta’kidlab o‘tadilar. Shu boisdan ham bugungi kunda inson ruhiyatini o‘rganuvchi olimlar milliy qadriyatlarini o‘rganish bo‘yicha ilmiy tadqiqot ishlariga ko‘proq e’tibor qaratmoqdalar. Qadriyat deganda inson uchun ahamiyatli bo‘lgan, millat, elat va ijtimoiy guruhlarning manfaatlari va maqsadlariga xizmat qiladigan tabiat va jamiyat hodisalari majmui tushuniladi.

“Qadriyat” aslida arabcha so‘z bo‘lib, o‘zbek tilida “qiymat”, “ahamiyat”, “qimmatbaho buyumlar”, “xalq boyligi” degan ma’nolarni anglatadi. Qadriyat falsafiy jihatdan esa “... inson uchun biror ahamiyatga ega bo‘lgan shakllar, xolatlar, narsalar, voqealar, hodisalar, jarayonlar, holatlar, sifatlar, talab, tartiblarning qadrini ijtimoiy ahamiyatini ifodalash uchun ishlatalidigan falsafiy kategoriya” hisoblanadi². Qadriyat ijtimoiy xususiyatga ega bo‘lib, kishilarning amaliy faoliyati jarayonida shakllanadivarivojlanadi. Inson va uning hayoti eng oliv qadriyatdir. Inson yo‘q joyda

² Tulenova, G., & Sanaqulov, A. (2022). Modern virtual technology and its opportunities. Academic research in educational sciences, 3(9), 100-105

biror bir narsaniningqadr-qimmati haqida so‘z bo‘lishi mumkin emas. Shuning uchun haminson qadr-qimmatinie’zozlash, uning turmushini yaxshilash, bilimi va madaniy saviyasini rivojlantirish, sog‘lig‘ini saqlash, hayotini himoya qilish davlatimiz siyosatining ham asosiy yo‘nalishini tashkil etadi. Jamiyatimizda ro‘y berayotgan tub o‘zgarishlar, islohotlarning barchasi kishilar hayoti farovon, boy, go‘zal bo‘lishi, inson o‘zini chinakam erkin his qilishi, o‘z mehnati natijasi, o‘ztaqdiri, o‘zmamlakatining egasi bo‘lishini ta’minlashga qaratilgandir.

Qadriyat - voqelikdagi muayyan hodisalarning umuminsoniy, ijtimoiy-axloqiy, milliy, madaniy-ma’naviy ahamiyatini ko‘rsatish uchun qo‘llanadigan tushuncha. Inson uchun ahamiyatli bo‘lganbarcha narsalar, erkinlik, tinchlik,adolat, ijtimoiy tenglik, ma’rifat, haqiqat, yaxshilik, go‘zallik, moddiy va ma’naviy boyliklar, an’ana, urf-odat va boshqalar qadriyat hisoblanadi³.

Ulug‘ bobokalonlarimiz Al-Xorazmiy, Abu Nasr Forobiy, Abu Ali ibn Sino, Abu Rayxon-al-Beruniy, Mirzo Ulug‘bek, Alisher Navoiy, Ismoil Buxoriy, Ahmad Yassaviy, Abduxoliq G‘ijduvoniy, Najmiddin Kubro, G‘azzoliy, Bahovuddin Naqshband, Mahmud Zamashshariy va boshqalarning nomlari jahon xalqlari tomonidan hanuzgacha hurmat bilan tilga olinib kelinmoqda. Markaziy Osiyo mutafakkirlari yaratgan fan va madaniyatning barcha sohalariga taalluqli nodir asarlar, qimmatli fikr-mulohazalar bugungi kunda hamjahon xalqlari ma’naviyat dunyosini boyitib, ularning ma’naviy kamolotiga xizmat qilmoqdaki, bundan biz faxrlansak arziydi⁴.

Ota - bobolarimizdan bizga qoldirilgan boy ma’naviy merosni avaylab, uni zamonaviy ilm-fan yutuqlari bilan ijodiy boyitib, kelajak avlodning tafakkuri, dunyoqarashini milliy va umuminsoniy qadriyatlar asosida shakllantirish eng muhim zaruratdir. Shuning uchun, kishilarda ijtimoiy qadriyatlar, buyuk kelajak, taraqqiyotga bo‘lgan ishonchni, ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayot barpo etishga bo‘lgan e’tiqodni shakllantirish dolzarb vazifa bo‘lib qolmoqda. Hozirgi bosqichda jamiyatimiz o‘z taraqqiyot tarixida muhim davrni boshdan kechirmoqda va bu faoliyatning barcha jabhalarida o‘z ifodasini topmoqda. Jahonda globallashuv jarayoni birmillatturmush tarziga boshqa millatning madaniyat modellari kirib kelishiga zamin yaratmoqda. Bu jarayon esa jamiyatda mavjud madaniyatga kuchli ta’sir o‘tkazib ma’naviyatni pasayishiga olib kelmoqda. Bu muammolar har qachongidan ham zamonaviy jamiyatning o‘zini o‘zi saqlashvayanada rivojlantirish uchun ijtimoiy qadriyatlarni tiklash va asrab-avaylash zarurligi dolzarblashib bormoqda. Jamiyatda kechayotgan yangilanish jarayonlari zamonaviy dunyoda faol va mas’uliyatli bo‘lishga qodir ma’naviyatli shaxsni shakllantirishni taqozo etadi. Ijtimoiy qadriyatlarni shakllantirish muammozi

³ Yo‘ldoshev J.G’. Usmonov S.A. Pedagogik texnolgiya asoslari. T:«O’qituvchi», 2004, - 95 bet

⁴ Asqar Zununov. Ulfat Maxkamov Didaktika (Ta’lim nazariyasi) Oliy o‘quv yurtlari uchun o‘quv qo‘llanma. T.: «Sharq» nashriyot - matbaa aksiyadorlik komponiyasi bosh tahririyati. T.: 2006 y. 125 bet

bugungi kunda eng dolzarb va har tomonlama tushunishni talab qiladigan muammolardan biri bo‘lib kelgan va shunday bo‘lib qolmoqda.

Yosh avlod ma’naviy olamini pokiza saqlashda keksa avlod qonunlariga amal qilish ham muhim omil bo‘lmoqda. Bundan kelib chiqqan holda, hozirgi bosqichda oilaviy an’analarni tiklash va ma’naviy-axloqiy qadriyatlarni rivojlantirish umidsizlik va jamiyat ma’nosini yo‘qotishdan qoqishga yordam beradi, deb taxmin qilish mumkin. Shu nuqtai nazardan, shaxsnинг ichki dunyosini himoya qilishni asrash, shaxs ichidagi og‘ir nizolar xavfini oldini olish yoki yumshatish, bizningcha, insonning buguni va yertasi mustahkam yashashining eng muhim shartlaridan biridir.

Milliy qadriyatlarning negizini urf - odatlar, rasm - rusumlar, bayramu-sayillar atshkil eatdi. o‘zbek milliy qadri-yatlari mazmunida insonparvarlik g‘oyalari yotadi. Uzoq tarix davomida o‘zbeklarning o‘zaro munosabatlarida, kundalik turmush tarzida o‘zaro hamkorlik va hamdardlik, vafodorlik va o‘zaro hurmat, bir - biriga suyanish va yaxshi qo‘shnichilik, bolajonlik va ota - onaga hurmat, mehr - oqibat va sadoqat har tomonlama e‘zozlanib kelinadi. Milliy qadriyatlар o‘sha millatga mansub har bir kishi tomonidan yaratilgan, insoniylik, odamiylikka xos fazilatlar, xislatlar, xosiyatlarni milliy - madaniy meros xazinasiga qo‘shgan hissasini ifodalovchi buyuk ko‘rsatkichdir. Milliy qadriyatlarni tiklash - ularga hozirgi zamonga mos yangi mazmun ato etish demakdir. Xuddi shuning uchun ham, O‘zbekiston davlat musatqilligiga erishishi bilan mamlakatimizga hozirgi zamon sivilizatsiyasi talablariga javob beruvchi umuminsoniy demoqratik qadriyatlар xalqimiz turmush tarziga kirib kela boshladi.

Milliy qadriyatlарimizning yorqin ko‘rinishlari sifatida: vatanga muhabbat, do‘stlikka sadoqat, ishonch, oilaga vafo hamda mehr tuyg‘ularini misol qilib keltirishimiz mumkin. Inson faqatgina dunyoviy bilimlarni o‘zlashtirib, yoki bo‘lmasa insonga xos bo‘lgan mehr, sadoqat, ishonch, odob-axloq, hurmat, tinchlik kabi tushunchalar haqida bilimga ega bo‘lishning o‘zигина uning ma’nan yetuk bo‘lib yetishishi uchun yetarli bo‘lmaydi. Insonga uning irodasi qudrati, mas’uliyat tuyg‘usini shakllantirish, kasbga, atrofdagilarga mehnatga, ruhan va qalban mehrli va oqibatli bo‘lish tuyg‘ularini shakllantirish, yuragida ulug‘ maqsadlar tug‘ilishiga va jamiyatda borayotgan hodisalarga o‘z fikrini bildira olishiga erishishimiz lozim. Yoshlarda shu xususiyatlarni shakllantirishning turli usullari mavjud: ota- bobolarning pand- nasihatlarini tinglash va bundan o‘zi uchun to‘g‘ri xulosa chiqarish qobiliyatini shakllantirish orqali, eng muhimi yoshlarga uzlusiz tarbiyani jonudildan berish orqali va tinimsiz izlanishlar natijasida erishish mumkin. Dunyodagi barcha millat va elatlarning asrlardan buyon saqlanib kelayotgan milliy qadriyatlari mavjud. Millatimizning ham uzoq o‘tmishlardan buyon saqlanib qolgan juda ko‘p milliy qadriyatlari mavjud bo‘lib, avlodni mana shu qadriyatlар asosida tarbiyalash bu umuminsoniy va milliy tuyg‘ularni shakllantirishning eng asosiy negizi hisoblanadi.

Bu yo‘lda biz milliy va diniy qadriyatlarimizdan oqilona foydalanib yoshlarning tarbiyasida ijobjiy o‘zgarishlar qilishimiz mumkin. Ko‘p hollarda milliy va diniy qadriyatlarning bir-biriga chambarchas bog‘lanib ketganining guvohiga aylanamiz. Misol uchun, kattalarga hurmatda, kichiklarga izzatda bo‘lish, barchaga salom berish. Milliy va diniy qadriyatlarimizdan yana biri halollik hisoblanadi. Buyuk bobokalonimiz Bahouddin Naqshbandning “Ibodat o‘n qism bo‘lsa, shundan to‘qqiz qismi halollikni talab qilish, qolgan bir qismi boshqa ibodatlardir”, degan o‘gitlari halollik maqomi qanchalar yuksak ekanini ko‘rsatib beradi. Halollik har tomonlama poklikni ifodalaydi.

Agar farzand ota-onadan birining g‘azabini chiqargan bo‘lsa, undan o‘sha shaxs rozi bo‘lmaq unicha, Alloh rozi bo‘lmaydi”, dedilar. “Ota-ona unga zulm qilgan bo‘lsa hammi?” – deyildi. “Zulm qilgan bo‘lsalar ham” – dedilar. Bu kabi rivoyat va hadislar ko‘plab namuna va misollar keltirish orqali yosh avlod ruhida va qalbida milliy va diniy qadriyatlarimizni shakllantirib boramiz. Bu esa ularning tarbiyasida o‘zining ijobjiy rolini bajaradi. Xulosa. Yuqorida fikrlardan kelib chiqib biz shunday xulosaga kelamizki, milliy va diniy qadriyatlarning inson tarbiyasidagi o‘rni beqiyos. Biz o‘sib kelayotgan har bir yosh avlodning ongiga milliy qadriyatlarimizni singdirib, buni hayot tarziga chambarchas bog‘lagan holda tarbiyani uzlusiz davom ettirishimiz kerak. Kelajagimiz yoshlar qo‘lida ekanligini anglagan holda, farzandlarimiz tarbiyasiga diqqatli bo‘lmog‘imiz lozim. Milliy qadriyatlar bizning o‘tmish tarzimiz va madaniyatimizni aks ettirgani kabi, biz ularni kelajakka yosh avlodlarimiz orqali yetkazishimiz darkor.

XULOSA

Qadriyatlar va ulardan ijtimoiy hamda pedagogik munosabatlarni tashkil etish jarayonida foydalanish borasidagi vazifalar — ta’lim mazmuni, uning jarayoni va “pedagog - o‘quvchi” tizimidagi o‘zaro munosabatlarni tashkil etish asosiga kiritilishi lozim.

Xulosa qilib shu narsani ta’kidlamoqchimanki, o‘zbek xalqining hozirgi milliy ma’naviyati va qadriyatlari o‘tmish milliy ma’naviyatining davomi bo‘lib, ularga do’stlik, mehmondo’stlik, insonparvarlik, axloqiy poklik, saxiylik, xushmuomalalik, hayolilik, sizlab muomala qilish, ozodalik, xushchaqchaqlik, xushfe’lllik, mardlik, samimiylilik, lutfi karamlik, ro‘zg‘orparvarlik, ona yurt va xalqiga muhabbatlilik, insoflilik, diyonatlilik, rostgo‘ylik, halollik, or-nomuslilik, to‘g‘rilik, sabrandishalik, vazminlik, hojatbarorlik, ota-onasi va kattalarni hurmat qilish, mehnatsevarlik, o‘tmishga hurmat, insoflilik, iymonlilik, milliy g‘urur, vatanparvarlik, millatparvarlik kabilar kiradi. Bugungi kunda bularni yoshlar onggiga singdirish har bir ota-onasi va tarbiyachi-murabbiylarning asosiy vazifalaridir.

Xalqimiz urf-odatlari, an’analari va marosimlari katta tarbiyaviy ahamiyatga egadir. Odamlarning bir-biriga mehr oqibati, oqilona munosabati, to‘g‘ri muloqoti, iltifoti, extiromi xalqimizning ichki go‘zalligini, boy ma’naviy va ruhiy qiyofasini ifodalaydi. Eng muhim,

xalqimizdagи mehr-muruvatlilik, saxiylik, mehmondo'stlik, xushmuomalalik, mehr-oqibatlilik, andishalilik, samimiylik, to'g'rilik, intizomlilik, mehnatsevarlik, o'zini tuta bilihlik, tejamkorlik, sabr qanoatlilik kabi histuyg'ular va hislatlar bugungi kunda barkamol avlod tarbiyasida ibrat-namuna vazifasini bajaradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Asqar Zununov. Ulfat Maxkamov Didaktika (Ta'lim nazariyasi) Oliy o'quv yurtlari uchun o'quv qo'llanma. T.: «Sharq» nashriyot - matbaa aksiyadorlik komponiyasi bosh tahririyati. T.: 2006 y. 125 bet.
2. Tulenova, G., & Sanaqulov, A. (2022). Modern virtual technology and its opportunities. Academic research in educational sciences, 3(9), 100-105
3. Yo'ldoshev J.G'. Usmonov S.A. Pedagogik texnolgiya asoslari. T:«O'qituvchi», 2004, - 95 bet
4. Karimova V.M. O'zbek yoshlarida oila to'g'risidagi ijtimoiy tasavvurlarning shakllanishi: Psixologiya fanlari doktori ilmiy darajasini yozish uchun yozilgan dissertatsiya.-T.:1994.-312b